

G‘AFUR G‘ULOMNING AVLODLARGA QOLDIRGAN ULKAN MEROSI

G‘ulomjonov Hakimbek Shavkatjon o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 3-bosqich talabasi

“M.Najimov” ilmiy maktabi a‘zosi

Telefon: + 998 (90) 840 22 03

E-mail: hakimbekgulomjonov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk o‘zbek xalq yozuvchisi G‘afur G‘ulom ijodi, uning avlodlarga qoldirgan ulkan merosi, ularning adabiy hayotda tutgan o‘rni haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: yozuvchi, adib, meros, asar, she‘r, lirika, vatanvarparlik, xalq dardi, yoshlar, bolalik, umuminsoniylik.

Davlatimiz tarixida juda ham ko‘plab mashhur insonlar, olimlar, shoirlar, yozuvchilar, davlat boshqaruvchilari yashab o‘tishgan. Ana shunday buyuk insonlardan biri bo‘lgan, o‘zbek adabiyotining yorqin vakili G‘afur G‘ulom 1903-yil 10-mayda Toshkent shahrining Qo‘rg‘ontegi mahallasida dehqonlar oilasida tavallud topgan. Uning otasi savodxon bo‘lgan. Bu ham adibning adabiy sohaga qiziqishiga qaysidir ma‘noda sabab bo‘lgan deya olamiz. 1916-yilning kuzida G‘afur G‘ulom o‘qishga kiradi. Ota-onasining vafotidan so‘ng u ishlashga majbur bo‘lgan. Ko‘plab kasblarda o‘zini sinab ko‘rgach, u nihoyat, matbaaga harf teruvchi bo‘lib ishga kiradi, so‘ngra, pedagogik kurslarda tahsil oladi. 1919-yildan 1927-yilgacha u o‘qituvchi, maktab direktori, Ma‘naviyat uyushmasi ishchilari raisi bo‘lib ishlaydi, bolalar uyini tashkil etishda faol ishtirok etadi.

Yozuvchining adabiy faoliyati 1923-yildan boshlandi. She‘rlar, dostonlar, ocherklar, hajviy hikoyalar va qissalari gazeta va jurnallarda chop etila boshlaydi. 1923-yil yozilgan “Feliks farzandlari” she‘rida yetim bolalar haqida gapirarkan, unda yozuvchi o‘z hayotini ifodalaydi, “Maorif va o‘qituvchi” oynomasida esa “Go‘zallik qayerda” nomli ikkinchi she‘ri nashr qilinadi. Birin-ketin she‘riy to‘plamlari bosmadan chiqadi: “Dinamo”, “Xitoy suratlari”, “Biz sizlar bilan tirikmiz”, “Jonli qo‘shiqalar”, “Sizga”, “Sovg‘a”, “Tong qo‘shig‘i”, “Qo‘qon” dostoni va boshqalar. “G‘afur G‘ulomning 30-yil boshlarida yozilgan she‘rlarida yangi shakllarga burilish seziladi, bunga mumtoz rus tilini o‘rganishi ham muhim darajada ta‘sir ko‘rsatgan. Bundan tashqari, sanoatning o‘sishi, Turksib temir yo‘l magistralining qurilishi kabi uning ona yurtida sodir bo‘layotgan ajoyib o‘zgarishlarni ta‘riflash uchun yangi lug‘at boyligi, yangi she‘riy bo‘yoqlar, yangi ohang va vazn talab etilgan. Shoirning birinchi she‘riy

to‘plami “Dinamo” bo‘lib, 1931-yilda nashr etiladi. Ushbu to‘plam va keyingi she‘riy to‘plami “Tirik qo‘shiqlar” (1932) — yosh shoir yo‘nalishining yorqin namoyoni bo‘lgan”¹.

Shoirning boqiy hayot, mangu ko‘k daraxt (umr) haqidagi: “Qish va qor” (1929), “Non” (1931), “Toshkent” (1933), “Qutbda saylovlar” (1937), “Men - Yahudiyman” (1941), “Qish” (1941), “Xotin” (1942), “Afsuski, afsusni qo‘shib ko‘mmadi” (1945), “Bog” (1934), “Qayg‘u” (1942), “Kuz keldi” (1945), “Kuzgi ko‘chatlar” (1948) kabi she‘rlarida umuminsoniylik, insonparvarlik mavzulari o‘z aksini topdi.

Eng e‘tiborli jihati shundaki, adibning bir qancha asarlarida sharq adabiyotida donishmand inson timsoli bo‘lgan ota siymosi tasvirlangan. Bular: “Sen yetim emassan” (1942), “Qayg‘u” (1942), “Biri biriga shogird, biri biriga ustod” (1950), “Sizlarga - yoshlar” (1947), “Bahor taronalari” (1948) va boshqalar. Adibning, ayniqsa, barchaga ma‘lum va mashhur “Sen etim emassan” she‘ri 1941-yil 7-dekabrda kuchli ichki tug‘yon bilan yozilgan. Ushbu she‘rni shoir qayta-qayta ishlov berib, tahrirlar kiritib, shundan keyingina eng so‘nggi poetik matnini yaratgan:

Yetimlik nimadir-
Bizlardan so‘ra.
O‘ninchi yillarning
Sargardonligi;
Isitma aralash
Qo‘rqinch tush kabi
Xayol ko‘zgusidan
O‘chmaydi sira. . .

Ma‘lumki, ushbu she‘r ikkinchi jahon urushi ayni dahshatli tus olgan bir paytda, beomon, qonli qirg‘in olovi ostida qolgan belorus, ukrain va rus tuprog‘ida ota-onasiz yetim bo‘lib qolgan murg‘ak go‘daklarning O‘zbekiston tuprog‘iga olib kelinishi davrida yozilgan. “Davr, muhit, vaziyat nuqtai nazaridan bu she‘r dard avjida qilingan rohatbaxsh malhamga o‘xshaydi. Uning markazida mehribon ota, faylasuf shoir, bebaho homiy, rahmdil inson va ishonchli qo‘riqchi obrazi - shoir “Men” i turadi. Shu bois uning mehrga yo‘g‘rilgan yupanchli so‘zi, har bir nigohi va nafasi, dalda beruvchi xatti-harakati o‘ta samimiy jaranglaydi, ta’sirchan kechadi va titrab turgan tilaklarga orom bag‘ishlaydi :

Men yetim o‘tganman,
Oh u yetimlik. . .
Voy bechora jonim,
Desam arziydi.

¹ Abdusamatov H. G‘.G‘ulom satirasi. //G‘.G‘ulomning badiiy olami.-T.: “Fan”, 1984

Boshimni silashga
Bir mehribon qo‘l,
Bir og‘iz shirin so‘z
Nondek arzanda
Men odam edim-ku. . .
Inson farzandi. . .

Misralarda shoirning o‘z boshidan kechirgan yetimlik yillarining dahshatli mashaqqatlari lirik chekinish orqali ochib berilgan. Shoir o‘z xotiralarini izchil kuchayib boruvchi poetik pafos bilan she‘rxonga yetkazishga, uni o‘zining dardli xotiralari bilan oshno etishga muvaffaq bo‘lgan”².

G‘afur G‘ulom jo‘shqin va tinimsiz ilhom bilan ijod qiluvchi ijodkor bo‘lsa ham, biroq u har bir asariga, ularning har bir satri va har so‘ziga o‘ta mas‘uliyat bilan qaragan. Shuning uchun u hamma vaqt o‘z she‘rlarini qayta nazardan o‘tkazgan va ularga tegishli tuzatishlar kiritgan.

Yozuvchining chinakam xalq qahramonlari va milliyligimiz haqidagi: “Netay” (1930), “Yodgor” (1936), “Shum bola” (1936-1962) qissalari va “Shariat nayranglari” (1930), “Mening o‘g‘rigina bolam” (1965) hikoyalari ham takrorlanmas asarlar hisoblanadi.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi G‘afur G‘ulom “Navoiy va bizning davr” (1948), “Folklordan o‘rganaylik” (1939) tadqiqotlarini, “Jaloliddin dramasi haqida” (1945), “Muqimiy” (1941) maqolalarini yaratgan.

G‘afur G‘ulomning hikoyanavisligi “Jo‘ra bo‘za”, “Yigit” (1931), “Kulgi hikoyalar” (1932) to‘plamlarida o‘z aksini topdi. Adibning lirik-dramatik yo‘nalishda yaratgan “Mening o‘g‘rigina bolam” (1965) , yumoristik shakldagi “Hasan Kayfiy” hikoyalari alohida diqqatga sazovordir. Ularda adib ijodining bosh tamoyili-insonparvarlik ruhi yetakchilik qiladi.

“G‘afur G‘ulom umri davomida juda kop‘ she‘rlar, hikoya, ocherk, doston va fel’etonlar yozdi. Sa‘diyning «Guliston» asarini, Rudakiy, Firdavsiy, Bedil she‘rlarini, Navoiyning Foni taxallusli forsiy g‘azallarini o‘zbekchaga o‘girdi”³. G‘afur G‘ulom she‘riy va nasriy matn ustida ishlash, uni o‘zining g‘oyaviy-estetik talablariga javob beradigan darajaga olib kelish uchun uzoq vaqt mashaqqatli mehnat qilgan. Uning asarlaridagi maftunkor joziba, sehrli mazmun, o‘zgarmas poetik shakl ana shu talab va mashaqqatli mehnatning samarasidir.

G‘afur G‘ulomda xalq og‘zaki ijodi ta‘sirining nihoyatda xilma-xil ko‘rinishlarini topish mumkin: unda folklor asarlarini qayta ishlash, qoliplash usuli, “Shum bola”da “Uch yolg‘ondan qirq yolg‘on” ertagiga o‘xshagan g‘oyat jozibali yolg‘on to‘qib, juda

² Abrorov A. G‘.G‘ulom poeziyasi.-T.: 1970.

³ Yoqubov H. G‘.G‘ulom (hayoti va ijodi).-T.: O‘zadabiynashr, 1959.

qiziq kulgili voziyat-holat yaratadi. O‘nlab feletonlarini Nasriddin Afandi latifalari syujeti, shakli asosida quradi va shu yo‘l bilan ularni satirik hikoya darajasiga ko‘tarib yuboradi.

“G‘afur G‘ulom mumtoz adabiyotimiz va xalq ijodidan o‘rganish bilan chegaralanib qolmadi, u jahon xalqlari, ayniqsa, rus adabiyoti maktabi bilan ham bahramand bo‘ldi. V.Sheksperning “Otello”, “Qirol Lir” Lope de Veganing “Qo‘zibuloq qishlog‘i”, F.Shimirning “Vilgelm Tell”, Nizomiy, Jomiy, A.Pushkin, L.Tolstoy, A.To‘qay. T.Shevchenko, Prem Chand haqida maqolalar yozdi. Nozim Hikmat, Antol Gidash, Xodi Toqtosh, A.Lohutiy, M.Tursunzodadan tortib. A.S.Pushkin, M.Yu.Lermontov, N.A.Nekrasov, V.V.Mayakovskiygacha bo‘lgan ijodkorlar asarlarini o‘zbekchaga tarjima qilib o‘zbek kitobxonlarini jahon adabiyotining noyob durdonalari bilan tanishtirishda o‘z hissasini qo‘shdi”⁴.

G‘afur G‘ulom — O‘zbekistonning taniqli yozuvchisi. G‘afur G‘ulomning she‘riyati va nasrida o‘zbek xalqi tarixi o‘zining badiiy timsolini topgan. Yozuvchining ijodi rang-barang — she‘rlar, qo‘shiqlar, dostonlar, qasidalar, hikoyalar, qissalar. G‘afur G‘ulomning urushdan keyingi davrdagi ijodi o‘zbek adabiyoti rivojida beqiyos o‘rin tutgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, adibning biz yosh avlodga qoldirgan merosi juda katta hisoblanadi. Ularda kuylangan va yozilgan mavzular haqida ham yuqorida qisqacha to‘xtalib o‘tdik. Ushbu asarlarni to‘liq o‘rganib chiqish, albatta insondan katta sabr va kuch talab etadi. G‘afur G‘ulomning merosini anglagan va uni o‘rganish o‘quvchining dunyosini tamoman o‘zgartirib yuborishi, uning dunyoqarashini kengaytirishiga ishonchim komil. Shunday ekan, adibning bizga qoldirgan adabiy xazinasini qadrlab, ularni kuchimiz va bilimimiz yetguncha o‘rganib chiqishni maslahat bergan bo‘lardim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdusamatov H. G‘.G‘ulom satirasi. //G‘.G‘ulomning badiiy olami.-T.: “Fan”, 1984
2. Abrorov A. G‘.G‘ulom poeziyasi.-T.: 1970.
3. Yoqubov H. G‘.G‘ulom (hayoti va ijodi).-T.: O‘zadabiynashr, 1959.
4. G‘G‘ulom. Asarlar (10 tomlik).-T.: “Adabiyot va san‘at”, 1-3-tomlar, 1972.

⁴ G‘G‘ulom. Asarlar (10 tomlik).-T.: “Adabiyot va san‘at”, 1-3-tomlar, 1972.